


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-avgust)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4822,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 100,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,0 % ni tashkil etdi.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 2,2 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 39,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 2,4 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 0,6 % ga pasayishi kuzatildi.




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2604,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 54,0 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning hajmi 171,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 6,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 83,3 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 3,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 501,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 19,2 %), quyi texnologiyali 1848,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 71,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	24,6	28,7	4,3
Aroq, ming l. 100 % spirt	680,4	1080,4	400,0
Sellyuloza, ming tonna 90 %	930,5	1219,9	289,4
Paxta tolasi, ming tonna	17,2	24,0	6,8
Yigirilgan ip, tonna	2065,8	1660,9	-404,9
Paxta chigit, ming tonna	47,2	35,7	-11,6
Paxta tiviti (lint), ming tonna	1,6	2,0	0,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	16,4	21,9	5,5
Etilen polimer qoplar, ming tonna	12,6	11,2	-1,4
Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	9608,9	9311,0	-297,9
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal	240,7	221,4	-19,3



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

28,7
ming tonna



Aroq

1080,4
ming l. 100 % spirit




Sellyuloza

1219,7
ming tonna 90 %



Paxta chigitি

35,7
ming tonna




Paxta tiviti (lint)

2,0
ming tonna



Yigirilgan ip

1660,9
tonna



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Paxta tolasi



Etilen polimerli qoplar



Soapstok

24,0
ming tonna

11,2
ming tonna

121,9
tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi



Bug' va issiq suv
(issiqlik energiyasi)



Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

9 311,0
mln. kVt/s

221,4
ming Gkal

21,9
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2179,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,2 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,4 % ga pasayganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,9 % ga pasayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1691,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 21,6 % ga pasayishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 35,1 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 78,7 % dan 2020-yilning yanvar-avgust oylarida 61,7 % ga kamayganligi kuzatilmoxda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,3 % ni (2019-yil yanvar-avgust oylarida 1,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 34,5 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,8 % ni, Yangiyer shahri 9,6 % ni hamda Mirzaobod tumanida 8,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (78,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (93,2 %), Sayxunobod tumanida (89,2 %), Sardoba tumanida (88,9 %), Xovos tumanida (88,8 %), Guliston shahrida (88,3 %) va Sirdaryo tumanida (80,2 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar-avgust oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
--	------------	------------------------------------	---

Sirdaryo viloyati **1691,8** **100** **78,4**

Guliston sh.	284,7	16,8	88,3
---------------------	--------------	-------------	-------------

Shirin sh. **17,9** **1,1** **63,8**

Yangiyer sh.	162,3	9,6	94,1
---------------------	--------------	------------	-------------

tumanlar:

Boyovut	117,81	7,0	40,4
----------------	---------------	------------	-------------

Guliston **40,27** **2,4** **64,4**

Mirzaobod	135,13	8,0	93,2
------------------	---------------	------------	-------------

Oqoltin **46,382** **2,7** **69,6**

Sardoba	63,43	3,7	88,9
----------------	--------------	------------	-------------

Sayxunobod **119,77** **7,1** **89,2**

Sirdaryo	584,43	34,5	80,2
-----------------	---------------	-------------	-------------

Xovos **119,74** **7,1** **88,8**



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 724,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,0 % ni tashkil etdi.





Hududlar kesimidasanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va indeksi


	2020-yil yanvar-avgust mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Sirdaryo viloyati	4822,7	100,1
Guliston sh.	538,1	97,4
Shirin sh.	2043,2	99,2
Yangiyer sh.	382,5	114,7

tumanlar:

Boyovut	214,8	100,1
Guliston	73,8	102,1
Mirzaobod	232,2	117,7
Oqoltin	112,2	93,8
Sardoba	80,8	89,5
Sayxunobod	203,2	106,6
Sirdaryo	819,7	91,4
Xovos	122,3	98,6



Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 42,4 %), Sirdaryo tumani (17,0 %), Guliston shahri (11,2 %), hamda Yangiyer shahri (7,9 %), Mirzaobod tumani (4,8 %) va Boyovut (4,5 %) tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Eng past ko‘rsatkich esa Xovos tumani (2,5 %), Oqoltin tumani (2,3 %) hamda Sardoba tumaniga (1,7 %) to‘g‘ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish
(2020-yil yanvar-avgust oylari, ming so'mda)**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	4822,7	1691,8
Guliston sh.	538,1	284,7
Shirin sh.	2043,2	17,9
Yangiyer sh.	382,5	162,3
tumanlar:		
Boyovut	214,8	117,81
Guliston	73,8	40,27
Mirzaobod	232,2	135,13
Oqoltin	112,2	46,382
Sardoba	80,8	63,43
Sayxunobod	203,2	119,77
Sirdaryo	819,7	584,43
Xovos	122,3	119,74

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi
(2019-yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, % da)**





**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi
(2020-yil yanvar-avgust oylarida)**


	Mahsulot hajmi (mlrd. soʻm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1520,0	31,5
Guliston sh.	210,5	39,1
Shirin sh.	17,9	0,9
Yangiyer sh.	215,7	56,4

tumanlar:

Boyovut	193,1	89,9
Guliston	40,2	54,4
Mirzaobod	129,6	55,8
Oqoltin	31,5	28,1
Sardoba	51,4	63,5
Sayxunobod	117,6	57,9
Sirdaryo	457,2	55,8
Xovos	55,7	45,6

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1881,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,0 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 80,8 %), Sardoba (79,4 %), Xovos (72,0 %), Sirdaryo (66,0 %), Yangiyer shahri (65,0 %), Mirzaobod (63,1 %), hamda Sayxunobod (62,8 %), tumanlarida kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Boyovut tumani (57,6 %), Guliston tumani (55,2 %), Oqoltin tumani (43,6 %) hamda Shirin shahrida (0,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.




Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 1982 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 527 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligining 26,6 %) Guliston shahriga, 333 tasi (16,8 %) Sirdaryo tumaniga, 179 tasi (9,0 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2020-yil yanvar-avgust oylarida viloyatda 400 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 51,5 foizi Oqoltin tumani, Xovos tumani, Sirdaryo tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefonasi: (067) 236-86-23